



ISSN 2021-9752


2025-yil, 15-dekabr 21(67)-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot» – Язык и литература – Language and Literature» (e-mail: tilvaadabiyot.uz@gmail.com); <https://ojs.uzpages.com>

8
DEKABR –
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI
KUNI!



TILSHUNOSLIK

Sharipboy BOBOJONOV. O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI'DA FE'LLARNING ISHLATILISHIGA DOIR MAVJUD QARASHLAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	29
Moxinur QURBONOVA. SHAKL YASOVCHI AFFIKSLAR YORDAMIDA HOSIL QILINGAN VA QO'SHMA SO'Z SHAKLIDAGI OKKAZIONAL BIRLIKLAR.....	32
O'g'iljon ABDOVALIYEVA. RUS OLIMLARINING QO'SHMA SO'ZLAR VA KOPULYATIV QO'SHMA SO'ZLAR TASNIFI DOIR QARASHLARI.....	34
Parvina KHOTAMOVA. POSESSIVLIK KATEGORIYASINI TADQIQ ETISHDA LINGVISTIK NAZARIYA METODLARI.....	37
Sabo MURODOVA. PRAGMATONIMLARNING SHAKLLANISHIDA KONVERSIYA MEKANIZMLARI	40
Shaxloza KARIMOVA. KVANTITATIVLIKNING IFODALANISHI HAQIDAGI FONETIK QARASHLAR.....	42
Dildora TURG'UNOVA. ZONIM KOMPONENTLI O'XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASOSLARI	44
Atadjan DJUMASHEV. QURILISH SOHASIDAGI TERMINLAR VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI	46
Shahzoda XASANOVA. TARJIMADA PSIXOLINGVISTIK OMILLAR TA'SIRI	49
Malika MISLIDDINOVA. MATN TARJIMASI VA TADBILI	52
Gulrux SHODIYEVA. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA POLINDROMNING KOGNITIV-STILISTIK TADQIQI	55
Nodira MANSUROVA. INGLIZ TILI ORQALI O'ZBEK TILIDAGI O'ZLASHGAN IQTISOD SOHASIGA OID TERMINLAR VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	58
Gulasal XUSANOVA. O'ZBEK, INGLIZ VA KOREYS TILLARIDAGI GEYMONIMLARNING QIYOSIY TAHLILI.....	60
Умида РУЗМЕВА. СИСТЕМА УПРАЖНЕНИЙ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ССЦ	63
Эльёржон ЮСУФАЛИЕВ. РОЛЬ И МЕСТО КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ СЕМАНТИКИ В ИЗУЧЕНИИ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОГО ЛЕКСИЧЕСКОГО СОСТАВА ЯЗЫКА	70

Гулихон АКРАМОВА. СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И ДИНАМИКА НАУЧНОГО СТИЛЯ.....	75
--	----

Лейла ХОЛЛУРОДОВА. АНАЛИЗ МЕЖКУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЕЙ АНГЛИЙСКОЙ И ФРАНЦУЗСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ МИРА.....	78
--	----

Madina MUSURMANKULOVA. SUBJECT RELEVANCE OF THE TERM.....	81
---	----

Malika RAJAPOVA. LINGUOPRAGMATIC AND LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES OF ALLEGORICAL DEVICES USED IN LITERARY TEXTS.....	84
---	----

ADABIYOTSHUNOSLIK

Gulhayo HAYDAROVA. ALISHER NAVOIY VA XX ASR O'ZBEK G'AZALIYOTI.....	88
--	----

Farida TURSUNOVA. XX ASR O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ABDULLA QODIRIY IJODIY MEROSINI O'RGANISH MUAMMOLARI.....	91
--	----

Nilufar UMAROVA. CHO'LPO'N SHE'RIYATIDA IDILLIYAVIYLIKNING MODERNCHA TALQINI.....	93
--	----

Seytjan MATEEKEY. AJINIYOZ IJODIDA OBRAZLAR BADIYATI.....	96
---	----

Bekposhsha RAXIMOVA. MATNAZAR ABDULHAKIMNING "IYMON TUHFASI" MAQOLASIDA PAHLAVON MAHMUD SIYMOSI TALQINI	98
---	----

Sayyora XAQNAZAROVA. ABDULLA SHER LIRIKASIDA O'ZIGA XOSLIK.....	101
---	-----

Maftuna XALOVA. HALIMA XUDOYBERDIYEVA LIRIKASIDA TUYG'ULAR TALQINI	103
---	-----

Moxira SADULLAYEVA. ISAJON SULTONNING RUHIYAT IFODALASHDAGI BADIY MAHORATI.....	105
--	-----

Feruz SADULLAYEV. Orzigu'l SATTOROVA. THOMAS WOLFE'NING "YOU CAN'T GO HOME AGAIN" ("UYGA QAYTOLMAYSAN") ROMANIDAGI QAHRAMONLARARO MUNOSABATLAR.....	108
--	-----

Mahfuza TO'YCHIYEVA. DETEKTIV ASARNI O'RGANISHDA MANTIQIY FIKRLASHGA ETIBOR BERISH MASALASI	110
---	-----

Dilobar BAXRIDDINOVA. STEAM METODLARI ASOSIDA PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY TAYYORLASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI	113
--	-----

Shoxida KARAMOVA. ZAMONAVIY ARUZIY SHE'RLAR LEKSIKASI.....	116
--	-----

O'g'iljon ABDUVALIYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
katta o'qituvchi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: ug'iljonabduvaliyeva92@gmail.com

RUS OLIMLARINING QO'SHMA SO'ZLAR VA KOPULYATIV QO'SHMA SO'ZLAR TASNIFIGA DOIR QARASHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada rus tilshunosligida qo'shma so'zlar, xususan kopulyativ qo'shma so'zlar haqidagi ilmiy qarashlar tarixiy va zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, qo'shma so'zlarda komponentlar o'rtasidagi semantik munosabatlar, birtitiruvchi elementlarning roli, kopulyativ birliklarning funksional jihatlari hamda ularning determinativ modellardan farqlari ko'rsatib beriladi. Y.V. Krasnova va M.V. Sviridovichning kopulyativ qo'shma so'zlarning urg'u tizimi, yozuv variantlari, sinonimiya va antonimiya masalalariga oid fikrlari ham tahlil qilinadi. Maqola rus tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlarning murakkab semantik-struktur tabiatini yoritib, bu birliklarning til tizimidagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda umumlashtiradi.

Kalit so'zlar: qo'shma so'zlar, kopulyativ qo'shma so'zlar, so'z yasash, kompozitsiya, semantik munosabatlar, morfologik model, endosentrik, ekzotsentrik kompozitlar, urg'u tizimi, sinonimiya, antonimiya.

Annotation: this article analyzes scientific views in Russian linguistics on compound words, particularly copulative compounds, based on both historical and modern approaches. It examines the semantic relations between components within compounds, the role of linking elements, the functional characteristics of copulative formations, and their differences from determinative models. The views of Y.V. Krasnova and M.V. Sviridovich on stress patterns, orthographic variants, synonymy, and antonymy in copulative compounds are also discussed. The article highlights the complex semantic-structural nature of copulative compounds in the Russian language and provides a scholarly generalization of their place and distinctive features within the linguistic system.

Key words: compound words, copulative compounds, word formation, composition, semantic relations, morphological model, endocentric compounds, exocentric compounds, stress pattern, synonymy, antonymy.

Аннотация: в данной статье анализируются научные взгляды в российском языкознании на сложные слова, в частности на копулятивные сложные образования, в историческом и современном аспектах. Рассматриваются семантические отношения между компонентами сложных слов, роль соединительных элементов, функциональные характеристики копулятивных образований, а также их отличия от детерминативных моделей. Обсуждаются взгляды Е.В. Красновой и М.В. Свиридович на акцентуацию, орфографические варианты, синонимию и антонимию в копулятивных сложных словах. В статье раскрывается сложная семантико-структурная природа копулятивных сложных слов русского языка и даётся научное обобщение их места и специфических особенностей в системе языка.

Ключевые слова: сложные слова, копулятивные сложные слова, словообразование, композиция, семантические отношения, морфологическая модель, эндоцентрические образования, экзоцентрические образования, акцентуация, синонимия, антонимия.

Tillarda qo'shma so'zlarning yasalishi, ularning tiplarini belgilash, tasniflash masalalari doimo dolzarb masalalardan bo'lib kelganligi ma'lum. Shuningdek, barcha tilshunoslik hodisalari kabi qo'shma so'z yasashida ham tarixiy va zamonaviy yondashuv mavjud.

Rossiyada so'z yasashini shakllantirish XIX asrning ikkinchi yarmida F.F. Fortunatov asarlarida shakllangan¹. O'sha davrdagi so'z

yasovchi tushunchalar uchun "qo'shma so'z" ni juda keng tushunish, qo'shma so'z va yasama so'zlar o'rtasida aniq chegaralar yo'qligi xos edi. F.F. Fortunatov qo'shma so'zlarning 4 guruhini aniqlaydi: 1) qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar (слитные): *непрямель*; 2) takror so'zlar (удвоенные): *большой-большой*; 3) grammatik jihatdan murakkab (грамматически-сложные): *языковедение* va 4) tarkibli, yasama (составные): *уходить*². XX asrda

¹ Николаев Г.А. Теоретические проблемы русского словообразования. Казанская научная школа (Двуязычное словообразование, морфемная и морфологическая). Монография / Под ред. Е.Н. Щербовой. – СПб.: Наука; Волгоград: ВГПУ, 2007. – С.7-29.

² Fortunatov F.F. Избранные труды в 2-х томах. Т. 1 / Академия Наук СССР; Отделение языка и литературы; Ф.Ф. Fortunatov. – М.: Государственное учебно-педагогическое изд-во Министерства просвещения РСФСР, 1956. – 173 с.

V.V. Vinogradov³, E.A. Zemskaya⁴ va boshqa olimlarning asarlarida soʻz yasalihi oʻrganildi, “soʻz birikmasi” tushunchasi aniqlandi, soʻz birikmasi soʻz yasalihi boshqa usullariga qarama - qarshi qoʻyilib, qoʻshma soʻzlarning tasnifi tuzildi, kompozitsiyalarning ikki va uch komponentli turlari oʻrganildi⁵.

V.D. Arakin⁶ va L.L. Nelyubin⁷ kompozit tarkibiy qismlar orasidagi bogʻlanish turini predikativ (*соединяющий*), atributiv (*вещный*) va obyektiv (*личностный*) deb belgilaydilar.

Strukturaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda, qoʻshma soʻzlar atematik (birkiruvchi elementsiz) va tematikga (birkiruvchi element bilan) boʻlinadi⁸. Rus tilida birkiruvchi elementsiz kompozitsiyalar kam uchraydi⁹. Birlashtiruvchi elementsiz qoʻshma soʻzni shakllantirish usuli baʼzi asarlarda “asoslarning oddiy qoʻshilishi”¹⁰ yoki “aglyutinativ usul”¹¹ deb nomlanadi. L.S. Filippova bu holatda nol interfiks haqida gapirish kerakligini taʼkidlaydi¹².

Aksariyat qoʻshma soʻzlarga bagʻishlangan (V.V. Vinogradov¹³, E.A. Zemskaya¹⁴) asarlarda taqdim etilgan morfologik yondashuv doirasida qoʻshma soʻzlarning modellari ularning komponentlarining soʻz turkumlariga mansubligini hisobga olgan holda tuziladi.

Qoʻshma soʻzning tarkibiy qismlari oʻrtasidagi semantik munosabatlarni N.N. Pertsovaning ishida oʻrganilib, olim tarkibiy qismlar oʻrtasidagi

semantik munosabatlarning 3 guruhini aniqlaydi: 1) teng munosabatlilar (*несомнелъ*) 2) qiyosiy va aniqlashtiruvchi (*зоре-охотник, Москва-река*) 3) aktant va sirkonstant (*кораблекрушение, стеклопакет*)¹⁵.

V.S. Vashunin kompozit konstruksiyalarning quyidagi funksiyalarini ajratib koʻrsatadi: nominativ, sintaktik, dissimilativ, matn hosil qiluvchi, ekspressiv, til/hutq ekonomiyasi, morfologik, soʻz hosil qiluvchi, leksema hosil qiluvchi va qoʻshma soʻzlarning koʻp funktsionalligini qayd etadi, bu esa unga qoʻshma otlarning alohida funktsional-kompozit modellarni tavsiflash imkonini beradi¹⁶.

Rus olimasi Y.V. Krasnova oʻzining maqolasida german tillar guruhining Skandinaviya boʻlimiga kiruvchi dan tilidagi kopulyativ qoʻshma soʻzlar guruhida ham endosentrik, ham ekzosentrik birliklar ajralib turishini, kopulyativ kompozitlarning hodisalar, predmetlar, sifatlar, xususiyatlar yoki harakatlar oʻrtasidagi simmetrik munosabatlarni oʻrganish muhim ekanligini taʼkidlaydi¹⁷. Shuningdek, olimasi kopulyativ shakllanishlar “moda” boʻlib borayotganligi, kopulyativ qoʻshma soʻzlarning keng tarqalgan guruhi asosan psixologiya, pedagogika, biznes va reklama sohasidagi mavhum otlar ekanligi, ikkinchi keng tarqalgan guruh rang atamalar bilan ifodalangan sifatlar, kasb nomlari jugʻrofiy nomlar, terminologik nomlar bilan bogʻliqligiga toʻxtalib oʻtadi. Bunda kopulyativ kompozitlarning komponentlari qoʻshib, defisli imlo yoki alohida yozish tendensiyalari mavjud.

Y.V. Krasnova dan tilida kopulyativ qoʻshma soʻzlarning urgʻu masalasiga ham alohida toʻxtalib oʻtadi. Unga koʻra kopulyativ qoʻshma soʻzlarda asosiy urgʻu, ikkinchidaraajali urgʻu, birinchi va ikkinchi komponentlarda teng urgʻu boʻlishi mumkin¹⁸. Shuningdek, Y.V. Krasnova oʻz xulosasida kopulyativ qoʻshma soʻzlarga quyidagicha muhim taʼrifni keltiradi: “shu bilan birga, kopulyativ kompozitsiyalar, shubhasiz, bir qator sabablarga koʻra ehtiyotkorlik bilan koʻrib chiqishni talab qiladi. Birinchidan, kompozitsiyani tushuntirish imkoniyati, aloqa jarayonida hodisalar, predmetlar, sifatlar, xususiyatlar yoki harakatlar oʻrtasidagi nosimmetrik munosabatlar, ikki nom qoʻshma boʻlib qoʻshilganda, bunda leksik maʼno ikki komponentning

3 Vinogradov V.V. Грамматика русского языка. В 2-х томах. Т. 1. Фонетика и морфология / Академия наук СССР, Институт русского языка; В.В. Виноградов. – М.: Издательство Академии Наук СССР, 1960. – 719 с.

4 Земская Л.С. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособ. / Е.А. Земская, 3-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2011. – 328 с.

5 Носачева М.И. Изучение композитного словообразования в русском и немецком языках. Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSN 2224-6150) 2015. Volume 5. Issue 1 – P.25-29.

6 Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков: учеб. пособ. / В.Д. Аракин. – 3-е изд. – М.: Филолит, 2005. – 208 с.

7 Нелюбин Л.Л. Сравнительная типология английского и русского языков: учебник / Л.Л. Нелюбин – М.: Флинта: Наука, 2012. 94-95 с.

8 БЭС. Языковедение / Под ред. В.Н. Ярцева. – М.: Большая российская энциклопедия, 1998. – 459 с.

9 Земская Л.С. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособ. / Е.А. Земская, 3-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2011. – 184 с.

10 Нелюбин Л.Л. Сравнительная типология английского и русского языков: учебник / Л.Л. Нелюбин – М.: Флинта: Наука, 2012. 94 с.

11 Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков: учеб. пособ. / В.Д. Аракин. – 3-е изд. – М.: Филолит, 2005. – 207 с.

12 Филиппова Л.С. Современный русский язык: Морфология. Словообразование: учеб. пособ. / Л.С. Филиппова. – М.: Флинта: Наука, 2008. – 161 с.

13 Виноградов В.В. Грамматика русского языка. В 2-х томах. Т. 1. Фонетика и морфология / Академия наук СССР, Институт русского языка; В.В. Виноградов. – М.: Издательство Академии Наук СССР, 1960. – 272 с.

14 Земская Л.С. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособ. / Е.А. Земская, 3-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2011. – 283 с.

15 Перцова Н.Н. Некоторые проблемы семантики словообразования // Труды международного семинара Диалог-2020 по компьютерной лингвистике и ее приложениям в двух томах. Том 1. Теоретические проблемы / под ред. А.С. Нариньян. – Т. 1. – Протвино, 2020. – С. 246-247.

16 Вашунин В.С. Субстантивные словосоединения в немецком языке / В.С. Вазунин. – М.: Высшая школа, 1980. – 14 с.

17 Краснова Е.В., Особенности композитных словосоединений в датском языке, Санкт-Петербургский государственный университет. 2017. – С.24-32.

18 Koʻrsatilgan manba.28-bet.

semantikasi bilan teng ravishda belgilanishi bunday shakllanishlarni yaratish mexanizmlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, qo'shma so'zlarni tahlil qilishda qaysi tasniflardan foydalanilishidan qat'i nazar, kopulyativ qo'shma so'zlar so'z yasallishida keng tarqalgan determinativlarga ("hokim va tobe" oppozitsiyasi) nisbatan o'zida qarama-qarshilikni ifodalovchi so'z tizimining bir qismidir. Shuning uchun so'z qo'shish kompleks ravishda o'rganilar ekan, ularni kopulyativ qo'shma so'zlarsiz (nisbatan kichik guruh bo'lsa ham) har tomonlama ko'rib chiqish mumkin emas. Uchinchidan, qo'shma so'zlar yaqinroq tekshirilganda bir jinsli guruh bo'lib chiqmaydi, komponentlarning simmetriyasi turli ko'rinishga ega bo'lishi mumkin, tarkibiy qismlarning o'zi ham tarkibi jihatidan ham, ichki bog'lanish xususiyatiga ko'ra ham bir jinsli bo'lishi mumkin¹⁹.

Belarus tilshunoslaridan M.V. Sviridovich²⁰ o'zining ilmiy tadqiqot ishida rus tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlar korpusi birinchi marta kompleks struktur-

19 Ko'rsatilgan manba.26-bet.

20 Свиридович М.В. Структурно-семантическая система сложных слов русского языка. Автореферат диссертации. – Минск, 2003. – С. 2.

semantik tadqiqot obyekti bo'lganligini, olingan natijalarning ilmiy yangiligi sifatida ta'kidlaydi. Olima kopulyativ qo'shma so'zlardagi komponentlarning sinonimiyasi va antonimiyasiga alohida to'xtalib o'tadi. Uning fikricha sinonimik kopulyativ qo'shma so'zlar tizimi o'zlashmalar, internatsional morfemalar, kompozitsiyada arxaik idizlarning saqlanishi tufayli shakllanadi. Kopulyativ qo'shma so'zlar tizimidagi antonimiyaning o'ziga xos xususiyati unda yangi oppozitsiyaning paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi²¹.

Qo'shma so'zlar, kopulyativ qo'shma so'zlar haqidagi rus olimlari fikrlarining qisqacha tahlil shuni ko'rsatadiki, rus tilshunosligida qo'shma so'zlar, ayniqsa kopulyativ qo'shma so'zlar, mazmuniiy va grammatik xususiyatlari bilan til tizimida alohida qatlamni tashkil etadi. Olimlar ularning semantik tenglik, struktur barqarorlik va morfologik yaditlik tamoyillariga tayanishini qayd etadi. Kopulyativ modellarda mazmun ikki asosning qo'shilishi orqali yuzaga keladi va bu ularni boshqa qo'shma so'z turlaridan farqlaydi.

21 Ko'rsatilgan manba.16-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Николаев Г.А. Теоретические проблемы русского словообразования. Казанская научная школа // Диалектное словообразование, морфемика и морфонология: Монография / Под ред. Е.Н. Шабровой. – СПб.: Наука; Вологда: ВГПУ, 2007. – С.7-29.
2. Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды в 2-х томах. Т. 1 / Академия Наук СССР; Отделение языка и литературы; Ф.Ф. Фортунатов. – М.: Государственное учебно-педагогическое изд-во Министерства просвещения РСФСР, 1958. – 173 с.
3. Виноградов В.В. Грамматика русского языка. В 2-х томах. Т. 1. Фонетика и морфология // Академия наук СССР; Институт русского языка; В.В. Виноградов. – М.: Издательство Академии Наук СССР, 1980. – 719 с.
4. Земская Л.С. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособ. /Е.А. Земская, 3-е изд., испр. и доп.. – М.: Флинта: Наука, 2011. – 328 с.
5. Носачёва М.И. Изучение композитарного словообразования в русском и немецком языкознании. Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSN 2224-6150) 2015. Volume 5. Issue 1 – P.26-29.
6. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков: учеб. пособ. / В.Д Аракин. – 3-е изд.. – М.: Физматлит, 2005. – 208 с.
7. Нелюбин Л.Л. Сравнительная типология английского и русского языков: учебник / Л.Л. Нелюбин – М.: Флинта; Наука, 2012. 94-95 с.
8. Филиппова Л.С. Современный русский язык: Морфемика. Словообразование: учеб. пособ. / Л.С. Филиппова. – М.: Флинта: Наука, 2009. – 161 с.
9. Перцова Н. Н. Некоторые проблемы семантики словосложения // Труды международного семинара Диалог-2000 по компьютерной лингвистике и ее приложениям в двух томах. Том 1. Теоретические проблемы / под ред. А.С. Нариньяни. — Т. 1. — Протвино, 2000. — С. 246-247.
10. Вашунин В.С. Субстантивные сложные слова в немецком языке / В.С. Вашунин. – М.: Высшая школа, 1990. – 14 с.
11. Краснова Е.В., Особенности копулятивных сложных слов в датском языке, Санкт-Петербургский государственный университет. 2017. – С.24-32.
12. Свиридович М.В. Структурно-семантическая система сложных слов русского языка. Автореферат диссертации. – Минск, 2003. – С. 2.